Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319454

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

O'ZBEKISTON AVTOMAGISTRAL YO'LLARIDA AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH SERVISINI LOYIHALASH

Ismailov Sarvarbek Taxirjanovich Stajyor-o'qituvchi
Andijon mashinasozlik instituti, Andijon shaxar, O'zbekiston
Kamalov Sherzodbek Sabirovich Stajyor-o'qituvchi
Andijon mashinasozlik instituti, Andijon shaxar, O'zbekiston

Annotatsiya: Avtoservisning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati vatanimiz avtomobil transporti va aholi avtomobillari uchun ulkan bo'lib, uning xizmatidan yil davomida hozircha bir milliondan ortiq avtomobillar doimiy foydalanadilar. Respublikamiz avtoservisi o'ziga hos rivojlanish tarixi va yo'liga ega.

Kalit so'zlar: Avtoservis, Texnik xizmat,Avtomagistral, Avtotransport korxonasi, Avtomobil saqlash, Dispetcher.

Kirish. Dunyo bo'ylab avtomobillar eng ko'p yo'lovchilar va yuk hajmi sonini olib yuruvchi vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan avtomobillarning salmog'i ko'payishi bilan avtomobillar servisi sohasining ahamiyati yanada oshib bormoqda. Shu bilan birga avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish sohasini zamonaviylashtirish ham o'z o'rnida muhim. "Servis" inglizcha "service" so'zi bo'lib, xizmat, aholiga xizmat ko'rsatish ma`nosini anglatadi. Aholi va tadbirkorlarga tegishli bo'lgan avtomobillarning sezilarli o'sishi, uni texnik jihatdan yaxshi holatda saqlash zaruriyati avtomobillarga servis xizmat ko'rsatish stansiyalari bo'lgan avtotexnik xizmat ko'rsatish tizimining ishlab chiqarish texnika bazasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishni talab etadi. Avtokorxonada avtomobillarga servis xizmatini ko'rsatishni takomillashtirish va ishlab chiqarish texnika bazasini rivojlantirish samaradorligi asosan loyiha echimlarining sifati bilan belgilanadi. Deyarli har kuni avtoservis xizmatisiz bironta avtomobil o'z vazifasini bajara olmaydi, ishga chiquvchi avtomobillarni yonilg'i moy bilan ta`minlash, ularni butlash, yuvish-tozalash va sinchiklab ko'rikdan o'tkazish talab etiladi. Avtoservis xizmat turlariga, shuningdek, aholi avtomobillarini komission usulda sotib berish, aholiga transport xizmat ko'rsatish va avtomobillarni ijaraga berish kabilar ham kiradi[1].

Avtoservisning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati vatanimiz avtomobil transporti va aholi avtomobillari uchun ulkan bo'lib, uning xizmatidan yil davomida hozircha bir milliondan ortiq avtomobillar doimiy foydalanadilar. Respublikamiz avtoservisi o'ziga hos rivojlanish tarixi va yo'liga ega. Ma`lumki, jahon avtoservisi avtomobil sanoati va transportiga tengdosh bo'lib, ular bilan birga rivojlangan va bir xil tarixga ega. Zotan, jahon avtomobil bozorlarini egallash hamma vaqt zamonaviy avtomobil servisi uzluksiz ishlab turishini talab etgan[2].

Vaholangki, sobiq davlatimizda avtoservisning paydo bo'lishi va rivojlanishi asosan fuqarolarning avtomobillarga ega bo'lishi bilangina bog'liq bo'lgan. Shaxsiy, fuqarolar transporti ikkinchi darajali hisoblanar va uning transporti sistemasidagi o'rni qadrlanmas, unga xizmat ko'rsatish avtomobil egalarining o'z muammolari bo'lib

Published: 10.11.2023

Cite this article: Ismailov Sarvarbek Taxirjanovich, Kamalov Sherzodbek Sabirovich (2023). O'zbekiston avtomagistral yo'llarida avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish servisini loyihalash. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319454

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

qolgan edi. Avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar mamlakatni faqat yirik va markaziy shaharlaridagina bo‘lib, ular asosan chet el sayohatchilari va elchixonalari avtomobillarga xizmat qilar edi.

Avtotransport korxonalari – avtomobillarni saqlash, ularga TXK va ta`mirlash, harakatdagi qismni ehtiyot qismlar va avtoekspluatatsion materiallar bilan ta`minlash, yuk va yo‘lovchilarni tashish ishlarini amalga oshirish. Ish bajarish turiga qarab avtomobil transporti korxonalari yuk tashuvchi, yo‘lovchi tashuvchi, aralash va avtokombinatlarga bo‘linadi. Texnik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar o‘z navbatida avtomarkazlar, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatuvchi shahar xududidagi, yo‘l yoqasidagi stansiyalar va turli ishlarga ixtisoslashgan avtoustaxonalar, hamda ayrim postlardan iboratdir.

Avtota`mirlash korxonalari avtomobil yoki uning agregatlarini qayta tiklash bilan shug‘ullanadilar. Avtomobil yoki uning birikmalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta`mirlash ma`lum texnologiya asosida bajariladi.

Texnik xizmat ko‘rsatish texnologik jarayoni va uni tashkil etish ish rejalarini o‘z vaqtida bajarish uchun kerak bo‘lgan ishchi postlari va joylarning soni bilan aniqlanadi. TXK ishlarini bajarilishi va taqsimlanishi uchun kerak bo‘lgan ishchi postlari, ularning soniga va tashkil etilishiga asosan, universal va maxsus turlarga bo‘linadi. Bu ishchi postlari o‘z navbatida boshi berk va boshi ochiq bo‘lishi mumkin. Qulayligiga qarab ketma-ket yoki parallel joylashadi[3].

Universal postlarda TXKni tashkil etish. Bu usulda, TXKdagi barcha ishlar bir postda bir guruh maxsuslashgan yoki universal ishchilar yordamida amalga oshiriladi. Texnologik jarayonni boshi berk yoki boshi ochiq ishchi postlarida tashkil qilinadi. Bu usulni kamchiligi avtomobillarni postlarga qo‘yish va olishda vaqtning ko‘proq ketishi, atrof-muhitni ifloslanishi va universal ishchilar ishlaganda, ko‘proq ish haqi to‘lanishidan iborat.

Avtotransport vositalarining texnik shay holda bo‘lishi avtoservis korxonalari tomonidan o‘z vaqtida o‘tkaziladigan texnik xizmat ko‘rsatish va ta`mirlash amallari orqali ta`minlanadi[4].

Firma usulida xizmat ko‘rsatish – bu avtomobil ishlab chiqaruvchi firmaning o‘z avtomobillariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta`mirlash ishlarini amalga oshirishdir. Servis ko‘rsatishning texnologiyasi, ya`ni ishlarning bajarilish ketma-ketlik tartibi ishlab chiqilar ekan, bu texnologiya maqsadga muvofiq, kam chiqimli va samarali bo‘lishi talab etiladi. Avtomobillarni xizmatga qabul qilish avtomobil, uning agregatlari, uzellari va tizimlarning texnik holatini aniqlash, bajariladigan ishlar hajmini va muddatini belgilash, shuningdek, zarur hujjatlarni to‘ldirish, mijozlar bilan muomala qilish kabi ishlardan iborat[5]. Avtoservis korxonasiga texnik xizmat va ta`mirlashga muhtoj avtomobillar kelib, uning oldidagi maydonda to‘xtaydi. Avtomobil zarur hollarda yuvish-tozalash postiga, so‘ngra qabul qilish postiga kelib tushadi[6]. Avtomobil egasi – mijoz avtomobillarni qabul qiluvchi – dispetcher yoki menedjerga uchraydi. Mijoz bilan qabul qiluvchi servis mutaxasissi barcha asosiy masalalar; ishlar hajmi, sarf bo‘ladigan ehtiyot qismlar va materiallar miqdori, xizmat narxining tahminiy miqdori va ko‘rsatiladigan xizmatlarning bajarish muddati

bo‘yicha kelishib, mijoz talablari asosida buyurtma-chek to‘ldirib bir nusxasini mijozga beradi[7].

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari./I.A.Karimov.- T.:O‘zbekiston, 2009.
2. O.Hamroqulov, Sh.Magdiyev. Avtomobillarining texnik ekspluatatsiyasi. Toshkent, 2005 yil
3. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmog‘i korxonalarini loyihalash. -T.: Fan, 2006.
4. Musajonov M.Z., Rajabov A.B., Raxmonov I.B. Avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchalari texnologik hisobi va uni rejalashtirish.-T.: TAYI 2009.
5. Azimov, T., Raximov, A., & Tursunboyev, L. (2023). SONLAR BILAN BELGILANGAN PROEKSIYALAR. Евразийский журнал академических исследований, 3(2 Part 3), 68-72.
6. Mamasoliyev B. et al. ELIMINATION OF NOISY OPERATION OF DAMAS REAR SUSPENSIONS //Science and innovation in the education system. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 59-63.
7. Ismailov S., Qirg‘izboyev B., Bahromov A. PARKING SPACE MANAGEMENT FOR TRUCKS //Models and methods in modern science. – 2022. – T. 1. – №. 15. – C. 143-147.